

подхода к конкретным ситуациям и предоставления новых видов деятельности детям. Это избавляет талантливых детей от скуки и привлекает их к активной деятельности).

5. Учителя имеют возможность работать со специальными программами (талантливые дети всегда основаны на специальной учебной программе, поэтому преподаватели имеют более сильную учебную

программу, и это не так просто.) В этой связи учителя имеют возможность работать со специальными программами целесообразно особо отметить).

Существование этих проблем самодостаточно особый подход к процессу обучения и работы с детьми то есть, этот подход фокусируется на процессе особое внимание будет уделено выбору учителей.

Литература

1. Способности и склонности: комплексные исследования /Под ред. Э.А.Голубевой. -М.: Педагогика, 1989. -С. 198.
2. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт (Нашр этилган мақолалар тўплами). -Т.: "Фан", 2001. 213-б.
3. Каримов И.А. Истиклол ва маънавият (Тузувчи ва нашр учун масъул. Н.Комилов ва К.Бўронов). -Т.: "Ўзбекистон", 1995. 127-б.
4. Андреева Г.М. Актуальные проблемы социальной психологии. - М.: Изд-во МГУ, 1998. -С. 112.
5. Психология. Қисқача изоҳли лугат /Тузувчилар: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳар. М.Г.Давлетшин. -Т.: ТДПУ, 1998. 46-б.
6. Щуркова Н.Е. Классное руководство: игровые методики. 3 изд. -М.: Педагогическое общество России. 2006. -С.218.

РЕЗЮМЕ

Мақолада иқтидорли болаларни ўқитишга ихтисослашган мактабларнинг самарадорлигини ўстиришнинг психологик ва технологик жиҳатлари муҳокама қилинади. Иқтидорли болаларни ўқитишга ихтисослашган мактабларнинг самарадорлигини оширишнинг психологик ва технологик жиҳатларини диққат билан ўрганиш малакали мутахассисларни тайёрлашга ёрдам беради.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются психологические и технологические особенности повышения эффективности школ, специализирующихся на обучении талантливых одарённых детей. Тщательное изучение психологических и технологических аспектов повышения эффективности школ, специализирующихся на обучении талантливых детей, помогает при подготовке квалифицированных специалистов

SUMMARY

The article deals with psychological and technological peculiarities of increasing the efficiency of schools specializing in teaching talented gifted children. A careful study of the psychological and technological aspects of increasing the effectiveness of schools specializing in teaching talented children helps in the training of qualified specialists

SHAXSDA DINIY DUNYOQARASHNI VUJUDGA KELTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

M.X.Djumanioyozova - katta o'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Tayanch so'zlar: shaxs, dunyoqarash, diniy dunyoqarash, e'tiqod, din.

Ключевые слова: личность, мировоззрение, религиозное мировоззрение, вера, религия.

Key words: person, outlook, religious views, belief, religion.

Ilmiy adabiyotlarda ko'p qirrali, murakkab "Diniy dunyoqarash" atamasining ta'rifi, mazmuni jihatidan bir xil xulosalarni uchratish qiyin. Dunyoqarash subyektiv voqelikni baholovchi qarorlar majmuidir. Moddiy dunyoni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash diniy, falsafiy, ilmiy bo'lishi mumkin. Diniy dunyoqarash olamdagi voqea va hodisa sabablarini, insonning orzu-umidlarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan qismat, taqdir bilan bog'lab tushunishdir [10].

Mustaqillik yillarida ilmiy adabiyotlarda diniy dunyoqarashning tor sinfiy, ateistik talqinidan voz kechildi, uning yangi qirralari kashf etildi. Shu bilan birga tarbiya natijasida shakllanishiga alohida urg'u berila boshlandi. Aynan talabalik davridagi yoshlarning diniy dunyoqarashga bo'lgan munosabati o'ziga xos xarakterlidir. Bu esa o'z navbatida ushbu o'ziga xos jihatni psixologik tomondan tadqiq etilishini talab etadi. Bugungi kunga kelib diniy dunyoqarash masalasi va uning erkinligini ta'minlash davlatimizning asosiy masalalaridan biridir.

"Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalashda bu UrDU lar tayanch bo'lib xizmat qiladi..." [1] deb ta'kidlab o'tgan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida "...Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qilmaymiz" [2].

Diniy dunyoqarash nima va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati qanday kabi savollarga javob berish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Keng ma'noda diniy dunyoqarash shaxs ma'naviy hayoti uchun prinsip, yo'l-yo'riq sifatida

xizmat etuvchi, aql va iroda negizida anglangan bilim va shu negizida shakllanadigan maqsadlar majmui hamda ularning to'g'riligiga bo'lgan ishonchdir.

Ijtimoiy jihatdan diniy dunyoqarash shaxsning faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Zero, dunyoqarash amaliy jarayonlarda o'zini kengroq namoyish etadi. Agar diniy dunyoqarash mutaassib, irqiy, millatchilik va tor siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlar bilan chegaralangan bo'lsa, bunday holatda u buzg'unchilik va beqarorlikka xizmat qiladi, jamiyat va davlat rivojiga to'sqinlik qiladi. Shu tufayli, taraqqiyot va hurlikka xizmat etuvchi diniy dunyoqarash bilan buzg'unchi, yolg'onchi va yovuzlik yo'lga undovchi diniy dunyoqarashni bir-biridan farqlash nihoyatda zarur masaladir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sog'lom dunyoqarash shaxs e'tiqodi tizimida zarur ahamiyat kasb etadi. Uning zaruriyati birinchidan, shaxs dunyoqarashida barqarorlikni belgilovchi faktor sifatida, ikkinchidan, mavjud yoki yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan qiyinchiliklardan hayiqmaslikka, ularga qarshi tura olishga va bartaraf qilishning oqilona metodlarini izlashga, uchinchidan, xulqidagi bardamlik va aktivlikni ta'minlashga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Bular ham demokratik jamiyat qurishning zaruriy talablaridan biridir. Ma'lumki, jahondagi dinlar chin mohiyatiga ko'ra, ezgulik g'oyasiga asoslanadi hamda tinchlik, yaxshilik, do'stlik kabi xossalarga tayanadi. Bashariyatni halollik, pokdamonlik, og'a-inichilik va bag'rikenglikka da'vat qiladi. Buning uchun birinchi navbatda, insonlarda diniy ongning shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy ongning umumiy xususiyati, o'lchovi diniy dunyoqarashdir.

Diniy dunyoqarash u diniy g'oyalar tasavvurlar, tushunchalarni haqiqat sifatida qabul etish hamda ilohiy kuchning borligiga ishonishni o'z ichiga oladi. Diniy dunyoqarashda hissiyotlari qo'rquv, hayratlanish, quvonch,

umid va boshqalar diniy tasavvurlar bilan qo'shib ketib tegishli yo'nalish ma'no kasb etishi mumkin [8].

Din bu - millatga ta'sir qiladigan madaniyatning bir qismi. Dinning ta'sirida millatga qarashli muayyan psixologik jarayonlar sodir bo'lishi mumkin. Odamlarning yashash tarzi, turmush muammolarini hal qilishda din tomonidan tatbiq etilgan talablar ham o'z ta'sirini namoyon etadi [8].

E'tiqod tarbiyasi, ma'lum bir sifatlarga tayanishi sababli yoshlarga yaxshi-yomon sifatlar, ularning namoyon bo'lishi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berishga asoslanadi va buning bilan g'oyaviy tarbiyaning eng maqbul yo'llarini ko'rsatishga xizmat etadi. Mamlakatimiz mustaqil bo'lgach, ruhiy va jismoniy sog'lom, komil avlodni voyaga yetkazish orqali barqaror fuqarolik jamiyatini barpo qilish asosiy vazifa qilib belgilab olindi. Bu birinchidan, ta'lim muassasalarida tarbiya yo'nalishlarining pedagogik negizlarini yangilashni, zamon talabidan kelib chiqqan holda, g'oyaviy tarbiyaning jami ko'rinishlaridan maksimal foydalanishni taqazo etadi.

Diniy dunyoqarashning mazmunini anglashda, uning psixologik, falsafiy talqinlari zarur ahamiyatga ega. E'tiqod muayyan g'oya, dunyoqarashga his-hayajonli yondashuv ma'nosida iymonga yaqin turadi. Ammo e'tiqod tushunchasida faqat ijobiy tomonlarnigina ko'rish to'g'ri emas. Ijobiy va salbiy mazmunga ega e'tiqod shakllari orasida yana bir ma'naviy-ruhiy hodisa - e'tiqodsizlikning ham borligini e'tirof etish kerak.

Masalaga psixologik nuqtai nazardan yondashilganda iymon ham, vatanparvarlig-u milliy g'urur ham tug'ma hodisa emasligi, ularning qanday e'tirof etilishi va qanday anglanishiga, sodda til bilan aytganda, har xil shakllarda ko'rindigan tarbiyaga bog'liq ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. "E'tiqod bu - shaxsni o'z qadriyatlari tizimidan kelib chiqib harakatga qo'zg'atadigan anglangan ehtiyoj". E'tiqod ishonch bilan qarash, til va dil bilan tan olish shaklida ham talqin etiladi. Qur'onda: "Inson mukarram zot" degan oyat bor. Uni to'raligicha keltiradigan bo'lsak, u shundaydir. "Biz inson zotini mukarram qilib yaratdik va uni yer yuzida, suvda poknarsalardan rizqlantirdik, yerda, suvda yuradigan qilib vaqtlarini yaratib berdik va o'zimiz ham qilgan ko'pgina narsalarimizdan afzal qilib qo'ydik." [4]

Din psixologiyasida diniy dunyoqarashni ta'riflashda uning psixologik komponentlarini e'tirof etishda va uning yoshlarning psixik hayotidagi rolini namoyish etishda bir qancha urinishlar bo'lgan. Teologik orintatsiyaga qaratilgan yo'nalishlarda diniy dunyoqarashni diniy bo'lmagan dunyoqarashdan farqini ajratishga ko'proq e'tibor beriladi.

Germaniyalik psixolog olim V.Trillxaaz diniy dunyoqarashni "Yaratilgan in'omi", uning asosida Yaratgan turadi, odam emas, deb ta'kidlaydi [9]. Psixoanaliz yo'nalishi tarafdorlari bo'lgan M.Ostou va B.A.Sharfsteynlar o'zlarining kitoblarida "diniy dunyoqarash insonlarga xuddi oziq-ovqat kabi zaruriyat" - deb baho beradilar. Ular "barcha insonlar e'tiqodga muhtojdirlar, buningiz baxtli bo'lishning o'zi mumkin emas", deb tushuntiradilar [8].

U.Jeyms o'zining "E'tiqodga bo'lgan iroda" asarida irodani diniy dunyoqarash bilan aloqadorligini tushuntirib beradi. Bir necha faylasuf va psixologlar shaxs diniy dunyoqarashining negizini - hissiyot tashkil etadi, deb e'tirof etadilar [6]. Filosof va psixolog G.Geffding bu haqida shunday yozgan edi: "Hissiyot - barcha dinlarni va diniy qarashlarning chin mohiyatini, xususiyatlarini tashkil qiladi. Unga nisbatan barcha tasavvurlar bo'ysunadi va bog'liq bo'ladi" [5].

Diniy dunyoqarash muammosi bilan shug'ullangan ba'zi psixologlar uni murakkab hodisa, deb e'tirof etadilar va bunda shaxsning barcha psixik jarayoni: xayoli, hissiyoti va irodasi keng ishtirok etadi deb e'tirof etadilar [10].

Diniy dunyoqarash Allohga e'tiqod qiluvchilarda juda ham kuchli bo'ladi. Diniy dunyoqarash - bu dinga e'tiqod bilan bog'langan tarzda shaxs qalbida keng tomir yozadi. Diniy dunyoqarash ixlos zamirida tarkib topadi. Ixlos bo'lmagan joyda diniy dunyoqarash ham bo'lmaydi. Diniy e'tiqod bilan chambarchas bog'liq bo'lgan diniy dunyoqarash shaxs hayotining eng murakkab vaziyatlarida haq yo'l topa olishga imkoniyat yaratadi.

Talaba yoshlarning dinga bo'lgan munosabati, ulardagi diniy dunyoqarashning psixologik holatlari va ijtimoiylashuviga bo'lgan ta'sirini aniqlash uchun "Zamonaviy yoshlarning din va axloqqa bo'lgan munosabati"ni aniqlovchi so'rovnoma foydalanildi:

So'rovnoma o'z ichiga 25 ta savolni qamrab olib, metodika quyidagi ko'rinishga ega:

1. Sizni inson qanday paydo bo'lgan degan savol bezovta qiladimi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi, 89 talaba "Yo'q" degan javobni berishgan (Islom dinida odamning tuproqdan yaratilganligiga e'tiqod qilinadi). Yuqoridagi savolimizga Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining 19 tasi "Yo'q" degan javobni berishgan, 82 ta talaba esa "Ha" degan javobni berishgan. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi ko'pchiligida (68.9% ida) aniq ilmiy dunyoqarash yoki diniy dunyoqarash to'liq shakllanmagan.

2. Sizningcha, inson biror dinga e'tiqod qilishi kerakmi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi, 81 ta talaba, "Ha" degan javobni berishgan. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarini 67 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 24 ta talaba esa "Yo'q" javobida to'xtalgan.

3. Sizningcha, jamiyat uchun din kerakmi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Ha" degan javobni berishgan. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining ham barchasi "Ha" degan javobni berishgan.

4. Sizningcha, dindor odam adolatli bo'ladimi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Ha" degan javobni berishgan. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalaridan 63 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 28 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan. Bundan shu narsani ko'rishimiz mumkinki, dindor odam ko'pchilik (84%) fikricha, adolatli bo'lishi kerak, yoki adolatlilik dindor shaxs sifatlaridan biri.

5. Sizningcha, dindor odam yolg'on gapiradimi, degan savolga madrasa talabalarining 13 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 76 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining 27 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 64 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

6. Siz o'zingizda diniy bilimlar yetarli deb o'ylaysizmi, degan savolga madrasa talabalarining 13 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 76 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalaridan 16 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 75 tasi esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

7. Siz qaysi dinga e'tiqod qilasiz, degan savolga sinalluvchilarning barchasi (180 ta, 100%) Islom diniga (Variantlar: Islom, Xristian, Yahudiylik, Boshqa dinga, Dinga ishonmayman) e'tiqod qilishini aytgan.

8. Siz e'tiqod qiladigan din sizning xulq-atvoringizga ta'sir qiladimi, degan savolga sinalluvchilarning barchasi "Ha" degan javobni berishgan. Bundan shunday qarorga kelish mumkinki, ko'pchilik din shaxs xulq-atvoriga, ijtimoiylashuviga muayyan ta'sir ko'rsatadi degan fikrga ega.

9. Sizningcha, din sizning erkinliklaringizni cheklab qo'yadimi, degan savolga madrasa talabalarining 16 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 73 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining 18 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 73 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

10. Siz e'tiqod qiladigan dinda qachondan boshlab ibodat qilishga buyurilgan, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Bolalik yillaridan" degan javobni berishgan. UrDU talabalarining 38 tasi "Bolalik yillaridan" degan javobni berishgan, 53 ta talaba esa, "Istagan paytdan (vaziyatga qarab)" degan javobni berishgan.

11. Sizning sevgan insoningiz qanday bo'lishini istard-ingiz, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Dindor" degan javobni berishgan. UrDU talabalarining 57 tasi "Zamonaviy" degan javobni berishgan, 34 ta talaba esa "Dindor" degan javobni berishgan.

12. Sizning oilangizda diniy an'ana, urf-odatlar qadriyat sifatida baholanadimi, degan savolga madrasa talabalarining 87 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 2 ta talaba "Yo'q" degan javobni bergan. UrDU talabalaridan 74 tasi "Ha" degan javobni berishgan, 17 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

13. Diniy bayramlar (Islom dinida "Hayit", Xristian dinida "Pasxa", "Rojdestvo" kabilar) ni nishonlaysizmi, degan savolga sinaluvchilarning barchasi "Ha" degan javobni berishgan.

14. Siz e'tiqod qiladigan dinda spirtli ichimliklar ichishga ruxsat berilganmi, degan savolga sinaluvchilarning barchasi "Yo'q" degan javobni berishgan.

15. Sizda diniy bilimlarni egallashga moyillik bormi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Ha" deb javob berishgan. UrDU talabalarining 76 tasi "Ha" deb javob berishgan, 15 ta talaba esa "Yo'q" deb javob berishgan. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, sinaluvchilarning 90% i diniy bilimlarni egallashga moyil.

16. Siz diniy bilimlarni nimalardan olgan ma'qul deb hisoblaysiz, degan savolga madrasa talabalarining 72 tasi "Ustoz va murabbiylardan" deb javob bergan, 17 tasi "Kitobdan" deb javob bergan. Internet va ota-onadan degan javob belgilanmagan. UrDU talabalaridan 49 ta talaba kitobdan deb javob berishgan, 16 ta talaba "Ustoz va murabbiylardan" degan javobni berishgan, 14 ta talaba "Ota-onadan" degan javobni berishgan, 8 ta talaba "Kitob va ota-onani belgilagan, 2 ta talaba hammasini belgilagan, 1 ta talaba "Ustoz va murabbiylardan va kitobdan" degan javobni belgilagan, 1 ta talaba "Ota-ona va ustoz va murabbiylardan" degan javobni belgilagan.

17. Siz ta'lim olayotgan dargohda ustoz va murabbiylarning diniy savodxonligi qay darajada deb o'ylaysiz, degan savolga madrasa talabalaridan 84 tasi "A'lo" deb javob bergan, 3 tasi "Yaxshi" deb, 2 tasi "Qoniqarli deb javob bergan. UrDU talabalaridan 2 tasi "A'lo" deb javob bergan, 18 ta talaba "Yaxshi" deb javob bergan, 58 ta talaba "Qoniqarli deb javob bergan, 13 ta talaba "Qoniqarsiz" deb javob bergan.

18. Siz bolalarga diniy bilimlar berilishi kerak deb o'ylaysizmi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Ha" degan javobni berishgan. UrDU talabalaridan 65 ta talaba "Ha" degan javobni berishgan, 26 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

19. Siz bolalar diniy amallarni bajarishi shart emas, katta bo'lganda bajarsa bo'ladi deb o'ylaysizmi, degan savolga

madrasa talabalarining barchasi "Yo'q" deb javob berishgan. UrDU talabalaridan 42 ta talaba "Ha" degan javobni berishgan, 49 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

20. Sizningcha, dindor odamlar johil va ma'rifatsiz odamlarmi, degan savolga sinaluvchilarning barchasi "Yo'q" degan javobni berishgan.

21. Do'stlaringiz orasida dindorlari bormi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Ha" degan javobni berishgan. UrDU talabalaridan 39 ta talaba "Ha" degan javobni berishgan, 52 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

22. Sizningcha, Xudo qalbdan bo'lsa bo'ldi, diniy amallarni bajarish shart emasmi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Shart" degan javobni berishgan. UrDU talabalaridan 47 ta talaba "Shart" degan javobni berishgan, 44 ta talaba esa "Shart emas" degan javobni berishgan.

23. Sizningcha, diniy ishlar va dunyoviy ishlarni muvozanatda saqlash mumkinmi, degan savolga madrasa talabalaridan 86 ta talaba "Ha" degan javobni berishgan, 3 ta talaba "Yo'q" degan javobni bergan. UrDU talabalaridan 63 ta talaba "Ha" degan javobni berishgan, 28 ta talaba "Yo'q" degan javobni berishgan.

24. Sizningcha, ta'lim muassasalarida diniy bilimlar berilishi kerakmi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Ha" degan javobni berishgan. UrDU talabalaridan 64 ta talaba "Ha" degan javobni berishgan, 27 ta talaba esa "Yo'q" degan javobni berishgan.

25. Sizning fikringizcha, din shaxs xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatadi, degan savolga madrasa talabalarining barchasi "Ijoiy" degan javobni berishgan. UrDU talabalaridan 87 ta talaba "Ijoiy" degan javobni berishgan, 4 ta talaba "Ta'sir ko'rsatmaydi" degan javobni berishgan.

So'rovnomaga quyidagicha tahlil qilinadi:

Natijalarning sifat tahlili asosida sinaluvchilar uchta guruhga bo'lindi:

Birinchi guruhga 1 dan 7 gacha dindorlikning quyi darajasi;

Ikkinchi guruhga 8 dan 14 gacha dindorlikning o'rta darajasi;

Uchinchi guruhga 15 dan 21 gacha dindorlikning yuqori darajasi kiritildi.

Madrasa talabalarining barchasida (89 ta) yuqori darajadagi dindorlik ko'rsatkichi, UrDU talabalaridan esa, 51 nafarida yuqori darajadagi dindorlik ko'rsatkichi chiqdi, 37 nafarida o'rta daraja, 3 nafarida quyi darajadagi dindorlik chiqdi.

So'rovnomaga tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, diniy ta'lim izchillikda berib borilsa, talabalarda diniy dunyoqarash tarkib topadi. Nafaqat madrasa talabalaridan, balki UrDU talabalarida ham diniy bilimlarga yuqori darajada qiziqish mavjud. Talabalardagi bu qiziqish ijtimoiy muhitda shakllangan bo'lishi mumkin. Bu qiziqishning kelib chiqish sabablaridan biri yurtimizdagi aholining ko'pchiligi Islom diniga e'tiqod qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. 2016-yil Islom hamkorlik tashkiloti. / Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqi.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 19-sentyabrda BMT ning 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. 174-b.
4. Shayx Alouddin Mansur. Qur'oni Karim tafsiri. -Toshkent: "G'afur G'ulom", 1993. 628-b.
5. Г.Гефдинг. Философия религии. -Питер: 1912, -С. 567.
6. Джемс У. О многообразии религиозного опыта. -М.: 1993.
7. Зеньковский В.В. Психология детства. -М.: 1996.
8. Носович В.И. Психология веры. СПб., 1970.
9. Осипов И.А. Путь разума в поисках истины. -М.: 1999.
10. Религия и общество. Хрестоматия по социологии религии. - М.: 1994.

Мазкур мақолада shaxsda diniy dunyoqarashini vujudga keltiruvchi psixologik omillar to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan.

REZYUME

РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены вопросы о психологических факторах, влияющих на возникновение религиозного мировоззрения личности.

This article aims to show some ideas about psychological factors that develop person's religious views.

ОИЛАДА РЕПРОДУКТИВ ХУЛҚНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ

М.Б.Каландарова - ўқитувчи

Ургенч давлат университети

Таянч сўзлар: оила, соғлом турмуш тарзи, репродуктив хулқ, репродуктив саломатлик, эҳтиёж, кадрият.

Ключевые слова: семья, здоровый образ жизни, репродуктивное здоровье, репродуктивное поведение, необходимость, ценность.

Key words: family, healthy life style, reproductive behavior, reproductive health, needs, value.

Маълумки, баркамол ва соғлом авлод мустаҳкам оилавий муносабатлар шароитида тарбияланади ва жамият ривожланишига ўз хиссасини қўшади. Шу боис ҳам, Ўзбекистонда оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш давлат сиёсати даражасига кўтарилган.

Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5325-сонли Фармони мамлакатимизда бу масалага кенчалик жиддий эътибор қаратилганлигини кўрсатади.

Мазкур фармонга асосан, айтиш мумкинки, мамлакатимизда хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларнинг турли соҳа ва тармоқларда ўз қобилият ва имкониятларини рўёбга чиқариши учун шарт-шароит яратиш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларига сўзсиз риоя қилинишини таъминлаш, оналик ва болаликни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, шунингдек, оила институтини мустаҳкамлаш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, ушбу соҳадаги муаммо ва камчиликлар мавжудлиги ва уларни бартараф этиш бўйича чора тадбирлар белгилаб берилган.

Бугунги кунда бутун дунёда оиланинг соғлом турмуш тарзига катта эътибор берилмоқда. Соғлом турмуш тарзи – бу ҳар бир инсоннинг маънавий, ақлий, руҳий ва жисмоний хусусиятларга эга бўлишга интилишидир. Маълумки, фарзанд юрт бойлиги, келажагимиз ворисларидир. Зеро, улар дунёда инсон деган буюк зотни, авлодлар давомийлигини таъминловчидир, айнан соғлом, ақлли, зехнли, яхши хулқли фарзанд миллат обрўси, миллат ифтихорига айланади. Оила – жамият асоси, улкан ижтимоий куч ҳисобланади. Шундай экан, оилаларда репродуктив саломатлиكنи асраш – соғлом турмуш гарови ҳисобланади.

Бугунги кунда аҳолининг репродуктив саломатлигини муҳофаза қилиш масаласи фуқароларимизнинг тиббий саводхонлигини ва маданиятини ошириш, ҳам жисмонан, ҳам маънан соғлом ва баркамол авлодни вояга етказишга эътиборни янада кучайтириш, ёшларимизнинг аҳил ва боқира оила қуришга, соғлом турмуш тарзига риоя қилишга интилишларини шакллантириш каби вазифалар ечимига бевосита боғлиқ.

Репродуктив саломатлик, репродуктив хулқ-атвор оила аъзоларининг тиббий саводхонлиги билан бирга психологик билимларга эга бўлишини талаб этади.

Репродукция тушунчаси латинчадан олинганда “re” – янгидан, яна, “producere”-ишлаб чиқиш деган маънони билдиради. Шунингдек, рупродуктив хулқ, репродуктив фаолият фақат болани дунёга келтириш билангина чекланмай, балки маълум бир ижтимоий сифатларга эга бўлган индивидни шакллантиришга қаратилган бўлади. Бу эса оналарнинг болани дунёга келтириши билангина эмас, балки кейинчалик уни парвариш қилиш, тарбиялаш, у билан маълум бир тарзда ўзаро мулоқот ва муносабатларга киришиш, унда маълум бир ижтимоий-психологик сифатларни шакллантириш каби қўллаб ўзаро муносабатлар

тизимини қамраб олувчи вазифалар мажмуи билан шартланади.

Репродуктив саломатлик – содда қилиб айтганда, фақат инсоннинг репродуктив тизими ва функциялари ҳамда жараёнларига оид барча масалаларда ҳасталикнинг йўқлигини аниқлаб, балки унинг жисмоний, руҳий ва ижтимоий жиҳатдан тўлиқ мўътадил ҳолатини ифода этади.

Репродуктив хулқ – оилада фарзанд туғилиши билан боғлиқ хулқдир. У оила аъзоларининг ўз даврининг фуқароси сифатида ижтимоий келиб чиқиши, ёши, саломатлик даражаси, маданиятига бевосита боғлиқ бўлган хатти-ҳаракатидир. Бу ҳаракатларнинг асл мотиви аввало инсондаги ўзидан насл қолдириш, оилада эр-хотинлик бурчини адо этишга бўлган иштиёқ ва лаёқатга бориб тақалади.

Ана шу вазифалар асосида репродуктив саломатлиكنи муҳофаза қилиш, оналик ва перинатал касалликларининг ва ўлим ҳолатларининг олдини олиш соҳасида аҳолининг билими ва санитария маданиятини оширишга қаратилган тадбирларни ўтказиш зарурати туғилади.

Етакчи оилашунос олимлардан бири А.И.Антонов репродуктив хулқнинг икки функциясини фарқлайди. Булар: одам авлодини давом эттириш (бола туғиш) ва болани тарбиялаш (болага қараш) функцияларидир.

Шунингдек, В.В.Бойконинг ишларида ҳам репродуктив хулқнинг психологик жиҳатларига алоҳида эътибор қаратилган. А.И.Антонов рупродуктив хулқ ҳақида ёзар экан, “Репродуктив хулқ, репродуктив установка, бу шахснинг оилада маълум бир микдорда бола туғилишига ижобий ёки салбий муносабатини белгиловчи, турли хил хатти-ҳаракатларнинг ўзаро мувофиқлиги билан шартланган психологик ҳолатдир”, - деб изоҳлайди.

Ижтимоий психология ва социологияда репродуктив хулқ ўзида турли хил когнитив (билиш), ҳиссий-баҳоловчи ва хулқий элементларни мужассамлаштирган таркибан мураккаб ҳодиса сифатида қаралади. В.В.Бойко фикрича, репродуктив установка – бу одамнинг болалар туғилишига нисбатан хулқий, ҳиссий ва онгли муносабатларида намоён бўладиган хулқий актлари, мулоҳазалари, баҳолари мажмуидир.

Шахснинг репродуктив хулқини белгилашда репродуктив хулқнинг юқорида келтириб ўтилган элементлари билан бир қаторда, унинг репродуктив меъёрлар, анъаналар, жамият манфаатлари ҳақидаги тасаввурлари, энг муҳими, ўзининг шахсий эҳтиёжлари ва имкониятларини ҳам инобатга олиш лозим.

Рупродуктив хулқ, репродуктив установкалар тузулишига оид маълумотлар таҳлили репродуктив хулқ моҳиятининг шахс хулқини психологик бошқариш механизми сифатида қайд этилишини кўрсатади. Репродуктив хулқнинг ҳар учала жиҳатлари ўзаро мувофиқликда ёки, аксинча, бўлиши мумкин.

Репродуктив установкаларнинг мураккаб тузилишга эгаллиги уни бир хилда ифодалашни қийинлаштиради. Репродуктив установкалар ёки оилада болалар сонини белгилаш шахс репродуктив установкаларининг ўзига хос жиҳатларига боғлиқ.